



UO'K: 336.14:336.22 (47+57)

Rasuljon DUSCHANOV,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

E-mail: [duschanovrasuljon1985@gmail.com](mailto:duschanovrasuljon1985@gmail.com), <https://orcid.org/0009-0005-0700-8181>

TDTU professori, t.f.d.R.Xaliqova taqrizi asosida

### THE ROLE OF TURNOVER TAX IN UZBEK SSR BUDGET (1930-1945 y.)

Annotation

In the Uzbek SSR, taxes and levies consistently constituted the primary and fundamental source of state budget revenues. Among these, the turnover tax and deductions from profits retained their significance until the dissolution of the Soviet system, occupying a leading position in both the structure and hierarchy of revenue sources. Notably, the turnover tax was imposed on goods that satisfied the population's essential and everyday needs.

**Key words:** Turnover tax, soviet system, budget, profit deductions, tax, levy, revenue, expenditure, finance, budget year, share, amount, source, enterprise, organization, institution.

### РОЛЬ ОБОРОТНОГО НАЛОГА В БЮДЖЕТЕ УЗБЕКСКОЙ ССР (1930–1945 гг.)

Аннотация

В Узбекской ССР налоги и сборы на постоянной основе являлись основным и первичным источником доходов бюджета. Среди них оборотный налог и отчисления от прибыли вплоть до распада советской власти не утратили своего значения и занимали первое место в структуре и порядке формирования доходов. Данный налог взимался с продукции, относящейся к числу товаров постоянной и жизненно необходимой потребности населения.

**Ключевые слова:** Налог с оборота, совет, бюджет, отчисления от прибылей, налог, сбор, доход, расход, финанс, бюджетный год, делиться, количество, источник, предприятий, организация, учреждения.

### O'ZBEKISTON SSR BUDJETIDA AYLANMA SOLIQNING O'RNI (1930-1945 y.)

Annotatsiya

O'zbekiston SSRda soliq va yig'imlar doimiy ravishda budjet daromadining asosiy va birlamchi manbai bo'lib kelgan. Shulardan aylanma soliq va foydadan ajratmalar sovet hokimiyati parchalanguncha o'z ahamiyatini yo'qotmagan, daromadlar turi va tartibida birinchi o'rinda bo'lgan. Bu soliq aholining doimiy va zaruriy ehtiyojlaridagi mahsulotlardan undirilgan.

**Kalit so'zlar:** Aylanma soliq, sovet, budjet, foydadan ajratma, soliq, yig'im, daromad, xarajat, moliya, budjet yili, ulush, miqdori, manbai, korxonalar, tashkilot, muassasa.

**Kirish.** Davlat budjeti daromadlari asosan soliqlar hisobiga shakllanadi, qolgan daromadlar esa uni to'ldiruvchi qo'shimcha hisoblanadi. Shuning uchun, soliq va yig'imlar doim davlatning xazina hamda budjetidagi daromad manbai bo'lib kelgan. Ayniqsa, XX asr boshlarida paydo bo'lgan aylanma soliq sovet hokimiyati budjetida 1930-yilda joriy qilingan bo'lib, sovet hokimiyati qulaguncha budjetda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Davlat budjetidagi daromadning birlamchi manbai sifatida doimo muhim o'rin tutgan.

Bundan oldingi soliq islohotlari natijasida taxminan 60 turdagi soliqlar va to'lovlar ikkita asosiy to'lov bilan almashtirilgan davlat korxonalarini va tashkilotlari uchun aylanma soliq va foydadan ajratmalar hisoblanadi[1]. "Aylanma soliq" tarixiga e'tibor qaratilganda, bu soliq dastlab, 1918-yil Germaniyada umumiy aylanma soliq sifatida paydo bo'ldi[2], keyinchalik, boshqa Yevropa mamlakatlari uchun muhim precedent yaratdi. 1920-yil Fransiyada ham daromad manbai sifatida o'z budjetini shakllantirdi, bu jarayon SSSRda 1930-yil moliya sohasida tub o'zgarishlar bo'lganligi sababli soliq islohoti o'tkaziladi, chunki soliq islohoti natijasida daromad turlarida ham katta o'zgarish bo'ldi va korxonalaridan budjetga olindigan daromadlar 7 barobar ortgan. Shuning natijasida ikkita yangi aylanma soliq (налог с оборота) bu soliq tarkibiga 53 ta soliqni, foydadan ajratmalar solig'iga 3 ta soliqni o'z ichiga jamlagan soliqlar joriy qilinadi[3]. Shundan keyin bu soliqlarning o'rni davlat budjetida yetakchi

o'rinda daromad manbai bo'lib qolishi hamda bu sanoat sohasining rivojlanishi bilan bog'liqligi ahamiyatli hisoblanadi.

1931-yildagi SSSR yagona budjetini tashkil qiluvchi daromadlarga e'tibor qaratilganda, ular ikkita turga bo'linib, bular soliq va soliqsiz daromadlar hisoblangan. Soliq doimiy ravishda davlat daromadining birlamchi manbai bo'lib kelganligi sababli doimiy islohotlar olib borish muhim bo'lgan. Sovet davlatida budjet daromadidagi asosiy soliq va yig'imlarning 8 ta turi keltiriladi, bulardan eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgani aylanma soliq, keyingi o'rinda yagona qishloq xo'jaligi solig'i hisoblanadi. Chunki soliq va yig'imlarning daromaddagi ulushi 58 % ini tashkil etishi, aylanma soliq – 49 % i shu soliq bilan to'ldirilgan[4]. Ittifoqdosh respublikalar budjetida daromadlarning 7 ta turi keltirilib SSSR yagona budjetidan bitta soliq bilan farq qilib, 54 % iga, aylanma soliq 52 % ulushini tashkil qilgan[5]. Shu davrdagi mahalliy budjetlardan biri bo'lgan O'zbekiston SSR budjetidagi daromadlar tahlil qilinganda, aylanma soliq 61 % ini tashkil qilib, boshqa soliq va yig'imlar bilan solishtirilganda, 88 % ga to'g'ri kelgan. Qolgan 12 % ini boshqa daromadlar tashkil etishi qayd etilgan. Aylanma soliq joriy qilinguncha, sovet hokimiyatida aksiz, bojxona daromadlari birinchi o'rinda turgan egri soliqlar bo'lib, bundan keyin to'g'ri soliqlar keltiriladi, bularga hunarmadchilik, yagona qishloq xo'jaligi va daromad soliqlari va boshqa turlarini o'z ichiga oladi hamda bu soliqlar doimiy ravishda miqdor jihatidan o'zgarib turgan.

SSSR budjetida aylanma soliqning o'rni[6] (1931-yil hududlar misolida)

№	Hududlar nomi	Aylanma soliq miqdori	Foiz
	Ittifoq budjeti	9.194,7	52,2 %
	RSFSR	131.997	10,3 %
	Ukraina SSR	55.317	10 %

	Belorisiya SSR	45.027	27 %
	Kavkazorti SFSR	167.913	68 %
	Turkmaniston SSR	59.766	65 %
	O'zbekiston SSR	113.913	61 %
	Tojikiston SSR	64.976	79 %
	SSSR budjeti	10.005,8	49 %

1935-yildagi SSSR budjetining daromad turi va miqdori tahlil qilinganda, daromadning 11 turi keltiriladi, shulardan to'rttasi soliq va yig'img'lar bo'lib, ulardan eng katta birlamchi manbai aylanma soliq bo'lib, daromadning 74,5 %, boshqa soliq va yig'img'lar bilan 85,5 % ini tashkil qilgan[7]. Shu yildagi O'zbekiston SSR budjetining daromadlar kesimidagi soliq va

yig'img'lardan ulushi 82,5 % bo'lib, bunda asosiy soliq hisoblangan, aylanma soliq 66 % dan ortig'ini tashkil qilgan[8]. Bu soliqning daromaddagi ulushi doimiy ravishda yuqori bo'lgani bilan yillar o'tishi natijasida kamayib, ko'tarilib turgani tahlili arxiv hujjatlarida ham qayd etiladi.

SSSR budjetida aylanma soliqning o'rni[9] (1935-yil hududlar misolida)

№	Hududlar nomi	Aylanma soliq miqdori	Foiz
	Ittifoq budjeti	44905,5	84 %
	RSFSR	5557,1	53 %
	Ukraina SSR	1526,1	46,4 %
	Belorusiya SSR	384,7	58,2 %
	Ozarboyjon SSR	257,2	54,4 %
	Gruziya SSR	320,4	58 %
	Armaniston SSR	101,5	62 %
	Turkmaniston SSR	169,2	63 %
	O'zbekiston SSR	475,8	66,4 %
	Tojikiston SSR	94,3	42,5 %
	Qozog'iston SSR	321,6	67,2 %
	Qirg'iziston SSR	62,3	61,5 %
	SSSR budjeti	52166,7	74,4 %

Yuqoridagi jadval tahliliga ko'ra, doimiy ravishda bu soliqning ulushi SSSR davlatida va mahalliy budjetlarda ham o'zgarish bo'lib turgan, buning asosiy sababi undiriladigan soliqning ma'lum bir qismi hududning keyingi budjet yiliga qoldirilishi ham bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, davlat daromadida ikkinchi manbai hisoblangan foydadan ajratmalarning ulushiga bog'liq jarayonda kechgan.

1938-yilgi davlat budjeti daromadi – 1.100.402 ming so'm, xarajati – 1.081.457,6 ming so'm daromad bilan xarajat o'rtasidagi farq 18.944,4 ming so'mni tashkil qilgan. Daromadning 46 % dan ortig'ini aylanma soliq, foydadan ajratmalar – 27,5 %, korxon va tashkilotlardan olinadigan soliqlar – 9 %, aholidan olinadigan soliq va yig'img'lar – 6 %, umumiy hisobda soliqlar 88,5 % ini tashkil qilib, bulardan tashqari davlat zayamlari, ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, turli xil daromad va davlat sug'urtasidan ajratma berilgan[10].

1939-yilgi davlat budjetidagi daromad asosini tashkil qiluvchi soliqlardan biri bo'lgan – aylanma soliq arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinganda, bular non mahsulotlari, to'qilgan narsa va trikatajlar shu jumladan: aroq-vino, o'simlik moylari, choy, qand, neft mahsuloti, tamaki, parfumeriya, hayvon moyi, baliq mahsuloti, teri va univermaglardan olingan soliq turlari bo'lgan. Lekin shu yildagi daromadning 46 % dan ortig'ini aylanma soliq tashkil qilsa, umumiy hisobda soliqlarning davlat daromadidagi ulushi 88,5 % ga to'g'ri kelsa[11], yarmidan ortig'ini aylanma soliq bilan bajarilgan.

SSSR budjetida aylanma soliqning o'rni[14] (1940-yil hududlar misolida)

№	Hudud nomi	Aylanma soliq miqdori	Foiz
	Ittifoq budjeti	97.975.352	67 %
	RSFSR	4.930.410	20 %
	Ukraina SSR	1.577.673	19,4 %
	Belorusiya SSR	706.324	33,4 %
	Ozarboyjon SSR	433.858	42 %
	Gruziya SSR	534.990	44 %
	Armaniston SSR	235.993	51 %
	Turkmaniston SSR	250.788	48,1 %
	O'zbekiston SSR	250.859	17 %
	Tojikiston SSR	261.897	50 %
	Qozog'iston SSR	953.160	58 %
	Qirg'iziston SSR	237.696	55 %
	SSSR budjeti	108.349.000	59 %

1941-yildagi SSSR budjetidagi aylanma soliqning daromaddagi ulushi 56 % ini tashkil etgani, yuqoridagi keltirilgan komissarliklardagi kabi daromatlarda miqdor jihatidan o'zgarish

bo'lgan, lekin yetakchilikda davom etib kelgan[15]. Shu yildagi SSSR budjetidagi daromatlarda soliq va yig'img'lar o'rni 74 % ini tashkil etgan. O'zbekiston SSR budjetidagi daromad tahlil

qilinganda ularning 13 ta turi keltiriladi. Shulardan birinchi o'rinda foydadan ajratmalar – 26,5 %, ikkinchi o'rinda aylanma soliq – 25 %, tovarsiz operatsiyalar, tashkilot va korxonalar daromad solig'i – 2,5 % va aholidan olinadigan soliq va yig'imlar – 6 % ini

tashkil qilib, umumiy hisobda daromad soliq va yig'imlarning ulushi – 60 % bo'lganligi, qolgan 9 ta daromad 40 % ga to'g'ri kelgan.

SSSR budjetida aylanma soliqning ulushi [16] (1940-1945 y)

Daromad turi	Yillar	Budjetlar			SSSR budjeti bo'yicha jami
		Itifoq	Respublikalar	Mahalliy	
Aylanma soliq	1940	70,3	23,8	23,0	58,7
	1941	59,7	21,8	24,7	52,7
	1942	44,6	28,3	11,5	40,2
	1943	37,6	23,2	15,3	34,7
	1944	36,6	38,6	21,3	35,3
	1945	42,9	46,2	21,1	40,7
	1940-1945	43,2	32,4	19,6	40,2

Sovet hokimiyatida aylanma soliq ulushi doimiy ravishda o'zgarib turgan. Bunda soliqning to'rtta sohasi berilib, birinchi sanoat bo'yicha, ikkinchi don mahsulotlarini g'amlash bo'yicha, uchinchi savdo bo'yicha, to'rtinchi korxonalar bo'yicha olinadigan obyektlar hisoblangan. Bulardan sanoatga og'ir va mashina qurilish, yengil, oziq-ovqat, go'sht va sut, baliq mahsulotlaridan olinadigan soliqlar boshqa sohalariga nisbatan katta qismini tashkil etgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida davlat daromadlarini ko'paytirish maqsadida yangi soliqlar ya'ni bular, bo'ydoq, yolg'iz va farzandsiz fuqarolar hamda harbiy soliqlar joriy qilganligi bunga misol bo'la oladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida aholidan olinadigan soliqlar doimiy ravishda o'zgarib turgan, shuning natijasida 4,2 martaga o'sgan. SSSR budjetiga 1941-1945-yillarda 111,7 mlrd. rubl mablag' kiritildi. Undan tashqari davlat zayomlari orqali ham budjetga 113,9 mlrd. rubl tushdi va bu harbiy holat davrida budjet daromadining 10,2 foizini tashkil etdi. Davlat muassasalaridan kelib tushadigan soliqlar urush yillari 21,4 foizga o'sdi. Umuman, urush yillari aholi tomonidan davlat budjetiga 133 mlrd. rubl tushirildi va bu budjet daromadining 11,9 foizini tashkil etdi. Shu tariqa sovet moliya va soliq tizimida davlat hisobi uchun soliqlarni undirish siyosati qattiqqo'llik bilan amalga oshirib, davlat budjetining haqqoniy to'ldirishiga xizmat qildi[17].

1940-yildan 1945-yilgacha aylanma soliq davlat daromadidagi ulushidagi pasayish yuz bergan, ayniqsa, 1940-yilga nisbatan 1942-yilda 37 % ga qisqargan. Buning asosiy sababi urush jarayoni hisoblanib, 1944-yilda ham bu kamayish davom etganligi buning isboti bo'lgan. Faqatgina 1945-yilga kelib, 1940-yildagidan 14 % ga oshgan[18]. Urush davrida zovod, fabrika, korxonalarning vayron bo'lishi yoki ularning boshqa hududlarga ko'chirilishi natijasida ishlab chiqarish jarayoniga katta ta'sir etganligi bunga misol bo'ladi.

**Xulosa.** Aylanma soliq tarixi iqtisodiy tizimlar rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u asosan davlat budjetiga tez va barqaror tushum ta'minlash maqsadida joriy etilgan. Sovet davlatida aylanma soliq davlat daromadining asosiy manbalaridan biri bo'lgan. U ishlab chiqarish va taqsimot zanjirining har bir bosqichida undirilgani sababli, budjetni to'ldirishda samarali hisoblangan.

Aylanma soliq tarixi quyidagilarni ko'rsatadi, u dastlab davlat budjetini tez to'ldirish uchun samarali vosita bo'lgani, lekin iqtisodiy samaradorlik va adolat nuqtai nazaridan kamchiliklarga egaligi, shu sababli ko'pgina davlatlarda u yangi soliq turining shakllanishiga olib kelgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Толкушкин А.В. История налогов в России. – Москва: Юристъ, 2001. – С. 222.
2. <https://sl.ceur.ru/dictionary/item115927/> Murojaat qilingan sana 21-mart. 2026-yil.
3. Собиров Х. Ўзбекистон давлат молияси тарихи. – Тошкент: Таълим манбаи, 2002. – Б. 110.
4. Единый государственный бюджет Союза Советских Социалистических Республик на 1932 год. – Москва: Государственное финансовое издательство СССР, 1931. – С. 2.
5. Единый государственный бюджет Союза Советских Социалистических Республик на 1932 год. – Москва: Государственное финансовое издательство СССР, 1931. – С. 4.
6. Единый государственный бюджет Союза Советских Социалистических Республик на 1932 год. – Москва: Государственное финансовое издательство СССР, 1931. – С. 2-18.
7. Государственный бюджет Союза ССР за вторую пятилетку (1933-1937 гг.). – Москва: Государственное финансовое издательство, 1939. – С. 8-10.
8. Государственный бюджет Союза ССР за вторую пятилетку (1933-1937 гг.). – Москва: Государственное финансовое издательство, 1939. – С. 52-54.
9. Государственный бюджет Союза ССР за вторую пятилетку (1933-1937 гг.). – Москва: Государственное финансовое издательство, 1939. – С. 9-67.
10. O'zMA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 1761-yig'majild, 277a-278-varaqlar.
11. O'zMA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 1761-yig'majild, 57a-varaq.
12. Государственный бюджет СССР на 1940 год принят Советом Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1940. – С. 2-6.
13. Государственный бюджет СССР на 1940 год принят Советом Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1940. – С. 26.
14. Государственный бюджет СССР на 1940 год принят Советом Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1940. – С. 2-32.
15. Государственный бюджет СССР на 1941 год принят Советом Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1941. – С. 2-6.
16. Государственный бюджет СССР на 1941 год принят Советом Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1941. – С. 40-42.
17. Государственный бюджет СССР Статистический сборник часть II 1938-1950 гг. – Москва, 1955. – С. 68.
18. Народное хозяйство СССР в великой Отечественной войне 1941-1945 гг. Статистической сборник. – Москва: Информационно-издательский центр, 1990. – С. 215.